



SHARQ VA G‘ARB AN‘ANALARIDA DEMONOLOGIK VA ANGLOLOGIK TASAVVURLAR

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.035>

Kuchiboyev Mansur Abdumurotovich

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
Xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq va G‘arb madaniy-an‘analarida demonologik va angelologik tasavvurlarning genezisi, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda ularning mifologiya, diniy ta‘limotlar va mumtoz adabiyotdagi badiiy-estetik talqini qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda demonologiya va angelologiya tushunchalarining ibtidoiy mifologik tafakkur doirasida vujudga kelishi, keyinchalik yirik diniy tizimlar — xristianlik va islom ta‘limotlari ta‘sirida nazariy va ramziy jihatdan takomillashuvi yoritilgan. Ingliz va o‘zbek mumtoz adabiyotida demonologik va angelologik obrazlarning (iblis, shayton, jin, dev, farishta, pari va boshqalar) badiiy funksiyalari, ularning axloqiy-falsafiy mazmuni hamda inson ruhiyati bilan bog‘liq talqin xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada mazkur obrazlarning syujetni harakatlantiruvchi, ramziy ma‘no yaratish, personaj ruhiy holatini chuqurlashtirish va o‘quvchining dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatishdagi roli ilmiy asoslangan holda ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari demonologiya va angelologiya tushunchalarining adabiy tafakkurdagi universalligi hamda ularning milliy-madaniy kontekstga moslashuv mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Demonologiya, angelologiya, mifologik tafakkur, Sharq va G‘arb an‘analari, mumtoz adabiyot, demonologik obrazlar, angelologik obrazlar, mifologiya va din, badiiy talqin, ezgulik va yovuzlik dualizmi, inson ruhiyati, ramziy obrazlar.

Аннотация. В статье представлен всесторонний академический анализ демонологических и ангелологических представлений в восточной и западной культурных традициях. Исследование направлено на выявление генезиса, этапов исторического формирования и художественно-эстетической интерпретации данных понятий в мифологии, религиозных учениях и классической литературе. На основе сравнительно-типологического метода прослеживается эволюция демонологии и ангелологии от архаического мифологического мышления до их концептуализации в рамках христианства и ислама. Особое внимание уделяется художественным функциям образов демонов, дьяволов, джиннов, ангелов и других мифологических существ в английской и узбекской классической литературе. Раскрывается их

символико-философское значение, а также роль в отражении морального выбора человека, внутреннего конфликта и дуализма добра и зла. Сделан вывод о том, что демонологические и ангелологические образы являются универсальными элементами художественного мышления, адаптирующимися к конкретным национально-культурным и историческим условиям.

Ключевые слова: Демонология, ангелология, мифологическое мышление, восточная и западная традиции, классическая литература, демонологические образы, ангелологические образы, мифология и религия, художественная интерпретация, дуализм добра и зла, человеческая психология, символические образы.

Annotation. This article provides a comprehensive academic analysis of demonological and angelological concepts in Eastern and Western cultural traditions, focusing on their genesis, historical development, and artistic representation in mythology, religious doctrines, and classical literature. Employing a comparative and typological approach, the study traces the evolution of demonology and angelology from archaic mythological consciousness to their systematic reinterpretation within Christianity and Islam. Particular emphasis is placed on the literary functions of demonological and angelological figures—such as devils, demons, jinn, angels, and fairies—in English and Uzbek classical literature. The article examines their symbolic, ethical, and philosophical dimensions, highlighting their role in constructing narrative dynamics, expressing moral dualism, and articulating human psychological conflict. The findings demonstrate that demonological and angelological images transcend purely religious frameworks, functioning as universal artistic categories shaped by specific historical, cultural, and ideological contexts.

Keywords: Demonology, angelology, mythological consciousness, Eastern and Western traditions, classical literature, demonological images, angelological images, mythology and religion, literary interpretation, dualism of good and evil, human psychology, symbolic representation.

Kirish. Ma'lumki, dunyoning barcha xalqlari adabiyoti, mifologiyasida demonologiya va angelologiya tushunchasi mavjud. Bu tushunchalarning o'ziga xos mohiyati, tarixiy va madaniy ildizlari Sharq va G'arb xalqlari an'analariidagi mifologik tasavvurlarga borib bog'lanadi. Bular haqida avvalo, bunday tasavvurlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida fikr yuritishga to'g'ri keladi. Mifologik dunyoqarashning paydo bo'lishi olis davrlarga borib taqaladi. Tabiatda sodir bo'ladigan suv toshqini, er qimirlashi, tog'larning ko'chishi, vulqon otilishi, momaqaldiraq, chaqmoq chaqishi kabi hodisalar qadimgi odamlar tasavvurida olamning yaralishi, insonlar, hayvonot va nabotot, parrandayu darrandalarning qay tartibda paydo bo'lganligi, tabiat hodisalari haqidagi ilk ibtidoiy tushunchalarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

Urug' jamoasi o'zlashtirgan hudud chegaralaridan tashqarida noma'lum, begona olam boshlanardi. O'z olami (koinot) - hayot, uyg'unlik va tartib markazi edi. Begona olam esa - tartibsizlik, o'lim va xaos markaziga aylanardi. Asta-sekin, ming yillar davomida

o‘zlashtirish tajribasini to‘plab, inson yangi sifatga o‘tishga imkon beruvchi ma’lum bir darajaga erishdi - inson ongi dunyoning yaxlitligini va undagi o‘z o‘rnini anglay boshladi. Insonning yashashi uchun moslashtirilgan dunyoning yaxlitligini anglash jarayoni dunyoning yaratilishi haqidagi afsona shaklida o‘z ifodasini topdi. Aynan olamning yaratilish jarayonida inson ongining paydo bo‘lish lahzasi ramziy tarzda aks ettirilgan. Inson o‘zining bu dunyoda mavjudligini bilishini anglab etdi. Yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o‘z og‘zaki ijodi, tabiat va jamiyat hayoti bilan bog‘liq afsona va rivoyatlari bor.

Adaboyotlar tahlili. Xalqning tashqi olamga munosabatini aks ettiruvchi miflarni o‘zida mujassam qilgan mifologiya olamni idrok qilishning, undagi hodisalar mohiyatini tushunishning o‘ziga xos usuli, inson ma’naviy madaniyatining debochasi hisoblangan. E.A.Ermolinning ta’kidlashicha, “Mif insonning tasavvurida aks etgan dunyoqarashi yoki dunyoqarashning obrazli negizi hisoblanadi. Bu inson e’tiqodining predmetidir. E’tiqod sof insoniy xususiyatdir

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodida tilga olinadigan jin, shayton, iblis, pari, dev, jodugar kabi obrazlar ham aslida ana shu tasavvurlar hosilasi hisoblanadi. Shunisi e’tiborliki, bu obrazlar turli xalqlarda hayotiy, aslida mavjud mavjudotlar sifatida qabul qilingan. Keyinchalik dinlar paydo bo‘lishi bilan mifologik qarashlar yanada teranlashgan va diniy e’tiqoddan mustahkam o‘rin egallagan. Ibtidoiy tasavvurlar tufayli miflar paydo bo‘lgan va o‘zi mansub bo‘lgan hududlarda keng tarqalgan. 18-asrgacha Evropada asosan antik - yunon va rim afsonalari keng tarqalgan edi. 18-asr birinchi yarmida keng doiradagi hind-evropa xalqlari (qadimgi hindlar, eroniylar, germanlar, slavyanlar) miflari ilmiy muomalaga kiritildi. Keyinchalik Amerika, Afrika, Okeaniya, Avstraliya xalqlari miflarining o‘rganilishi shuni ko‘rsatdiki, mifologiya tarixiy rivojlanishning ma’lum bir bosqichida dunyoning deyarli barcha xalqlarida mavjud bo‘lgan. "Jahon dinlari"ni (xristianlik, islom, buddaviylik) ilmiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular ham afsonalar bilan to‘yingan. Barcha xalqlar afsonalarining mazmuni taxminan bir xil bo‘lsa-da, ularning har biriga xos individual xususiyatlar ham mavjud” deb yozadi K.A.Soboleva o‘zining «XX asr ingliz adabiy an’anasida folklor va mifologiya (J.R.R. Tolkin, U.B. Eys)

Folklorshunos M.Jo‘raevning ta’kidlashicha, ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o‘zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo‘linadi. 1) ibtido hakidagi miflar (olamning yaratilishi va erda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi miflar); 2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo‘lishi haqidagi miflar 3) aitropogenik miflar (g‘ayrioddiy xislatga ega bo‘lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi miflar-masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Xubbi kabi pahlavonlar haqidagi miflar); 4) kult miflari (muayyan e’tiqodiy ishonchlar bilan bogliq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o‘simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar); 5) totemistik miflar (urug‘-qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o‘zbek urug‘larining paydo bo‘lishi haqidagi mif); 6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog‘liq miflar-masalan, ayamajuz, axman-daxman, chilla, to‘qson hisobi bilan bog‘liq miflar); 7) o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar (masalan, Gifeeyui haqidagi

mifologik syujetlar); 8) animistik miflar (jon to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlar); 9) manie,lik miflar (ajdodlar homiyligi xakidagi miflar); 10) dualistik miflar (ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o‘zida aks ettirgan miflar); 11) esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi miflar-masalan, oxir zamon to‘g‘risidagi mif).

Tahlil va natijalar. Demonologiya va angelologiya kelib chiqishi insoniyat tarixining ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladigan, inson tasavvuri, voqelikni idrok etishi, tafakkurining eng qadimiy sohalaridan bo‘lib, ular er yuzida yashovchi turli xalqlarga oid madaniyatlar, dinlar va adabiyotlarda aks etgan.

Ingliz va o‘zbek mumtoz adabiyotida bu tushunchalarning aks etishi nafaqat voqelikni mifologik tasavvurlar yordamida idrok etish, shu asosda shakllangan diniy e‘tiqodlar va asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tgan mifologik merosning ta‘sirida, balki ingliz va o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos tarixiy, madaniy va falsafiy kontekstida shakllangan. Xullas, demonologiya – yovuz ruhlar, iblislar va shaytonlar haqidagi ta‘limot, angelologiya esa – farishtalar, yaxshi ruhlar va ilohiy elchilar haqidagi bilim sifatida insoniyatning yaxshilik va yovuzlik, ilohiy va shaytoniy kuchlar to‘g‘risidagi azaliy izlanishlarining badiiy samarasidir. Tadqiqotlarda ingliz va o‘zbek mumtoz adabiyotida bu tushunchalarning qanday qabul qilingani, ularning adabiyotdagi aks etish usullari, mazmun-mohiyati va nazariy asoslari har tomonlama o‘rganiladi. Ko‘rinadiki, birinchidan, mifologiya, din hamda badiiy tafakkur bir-biri bilan chirmashib ketadi. Ikkinchidan, millat mentalitetidagi mifologik obrazlar, folklor va badiiy personajlar bilan bog‘liq holatlarning identifikatsiya va interpretatsiya jarayoni ma‘lum lingvomadaniy bilimlar zaxirasini taqazo etadi. Bunday bilimlar madaniy axborotni talqin etish uchun interpretatsiya bazasi vazifasini o‘taydi.

Ingliz adabiyotida mifologik obrazlarning kirib kelishi va tavsiflanishida qadimgi german mifologiyasining roli beqiyos. German mifologiyasidagi inson taqdiriga ta‘sir qiluvchi elflar, dvarflar, valkiriyalar kabi mavjudotlar xristianlik ta‘limoti g‘oyalarining kuchayishi bilan shayton va farishta tushunchalariga ma‘naviy yaqinlasha borgan. Anglosakson eposi “Beovulf” german mifologiyasi va xristian dunyoqarashining uyg‘unlashuvining ifodasi deyish mumkin. Mifologik demon obrazlari xristian dunyoqarashi asosida qayta talqin qilinib, ular ilohiy tartibga qarshi chiqqan ma‘naviy yovuzlik timsoli sifatida tasvirlangan. Kelt mifologiyasida esa inson bilan doimiy aloqada bo‘lgan bshqa olam tushunchasiga e‘tibor qaratilgan. Tabiat ruhlari, feyalar kabi g‘ayritabiiy mavjudotlar xristian dini ta‘sirida yo angelologik yoki demonologik mavjudot sifatida adabiyotga kirib kelgan.

Bu davrda ingliz adabiyotida faol bo‘lgan ayrim mifologik obrazlarning lug‘atlardagi tavsifini ko‘rib o‘tamiz:

Yakkashox yoki inrog‘ - (qadimgi ibroniycha נחש; qadimgi yunoncha μόνό-κερως; lotincha unicornis) - qadimdan beri afsonaviy mavjudot sifatida tasvirlangan. U ko‘pincha otga o‘xshash tuyoqli hayvon bo‘lib, peshonasidan chiqadigan bitta katta, o‘tkir va spiral shaklidagi shoxga ega deb ta‘riflangan. So‘nggi ming yil davomida Evropa adabiyoti va

san’atida yakkashox aksariyat hollarda oq rangli ot ko‘rinishida tasvirlangan. Uning uzun to‘g‘ri shoxida spiral chuqurchalar, tuyoqlari ikkiga ajralgan va ba‘zan echki soqoli ham bo‘lgan. O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrida uni odatda g‘oyat yovvoyi o‘rmon mavjudoti, poklik va nazokatning ramzi sifatida tasvirlaganlar. Uni faqat bokira qizgina tutib olishi mumkin edi deb hisoblanardi.

Elflar - (nemischa - Elfe, Inglizcha - elf) - nemis-skandinaviya va kelt folkloridagi ertaknamo, sehrli xalq. Shuningdek, alva (álfr - skand.), sid yoki shi (sidhe - dr. irl.) nomlari bilan ham tanilgan. Turli mifologiyalardagi elflarning tavsiflari bir-biridan farq qiladi, lekin odatda ular go‘zal, yorqin mavjudotlar, o‘rmon ruhlari. Ular ertak va fantastik adabiyotning doimiy qahramonlari, ayniqsa fentezi janrida (gnomlar, goblinlar va trollar bilan bir qatorda). Gnomlar - - Jon R. R. Tolkinning asarlarida Germaniya-Skandinaviya mifologiyasidagi mitti qahramonlarga asoslangan O‘rta erdagi xayoliy koinot xalqlaridan biri. Tabiatan ma‘dan qazuvchilar va ma‘danhunoslar, foniy odamlar orasida eng mohir toshkesarlar, zargarlar va temirchilar. Goblin - (Ingliz goblin, fr. gobelin) - G‘arbiy Yevropa mifologiyasiga ko‘ra, yer osti g‘orlarida yashaydigan va quyosh nurini o‘tkazmaydigan afsonaviy odamsimon mavjudot. Feya - Pari (avesto. parika - jodugar, forshaپری , peri, fransuzcha fée, inglizcha fairy - shuningdek faery, faerie, fay, fae; "kichkina odamlar," "yaxshi odamlar," "go‘zal odamlar" va hokazo). Evropa xalqlarining, ayniqsa kelt, german va ingliz quyi mifologiyasida metafizik tabiatli afsonaviy mavjudot hisoblanadi. U tushuntirib bo‘lmaydigan, g‘ayritabiiy qobiliyatlarga ega bo‘lib, yashirin (jamoat va yakka tartibda) hayot kechiradi. Shu bilan birga, insonning kundalik hayotiga aralashish xususiyatiga ega. Yaxshi niyatlar niqobi ostida harakat qilib, ko‘pincha zarar etkazadi. Ogri - (fr. ogre) - afsonaviy odamxo‘r gigantlar. Ular ba‘zi klassik adabiy asarlarda uchraydi, lekin ko‘pincha o‘rta asrlardagi Yevropa ertaklari va afsonalarida salbiy qahramonlar sifatida bolalar va chaqaloqlarni Afzal ko‘radigan odamxo‘rlar sifatida tilga olinadi[1].

Afsonalarda ogralar ko‘pincha g‘ayrioddiy yirik, kuchli, nomutanosib katta boshli, qalin sochli, g‘ayrioddiy rangli teri va ishtahasiz tasvirlangan. Ularning qiyofasi afsonaviy devlar va haqiqiy odamxo‘rlarning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan.

Shu tariqa, ingliz adabiyotida farishtalar va demonlar obrazi xristian ta‘limoti, qadimgi german va kelt mifologiyasi ta‘sirida shakllangan murakkab qorishma tizimni ifoda etadi. Bu obrazlar adabiy taraqqiyot jarayonida faqat diniy ramzlar bo‘lib qolmay, balki inson ruhiyati, axloqiy tanlov va turli ziddiyatlarni ifoda etuvchi universal badiiy timsollarga aylangan.

O‘zbek adabiyotida qo‘llanilgan angelologik va demonologik obrazlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Ajina - (arabcha-jin) – turkey xalqlar og‘zaki ijodidagi demonologik salbiy obraz. Yovuz ruhlar haqidagi animistik tushuncha, e‘tiqod mahsuli. Obraz sifatida kishilik jamiyati hali urug‘chilik bosqichida ekanligida shakllangan. Og‘zaki ijod namunalari ajina tashlandiq joy, chakalakzor, kimsasiz o‘tloqlarda uchraydi, asosan suluv qiz, chaqaloq, sochi yoyiq kampir, qo‘zichoq, echki qiyofalarida namoyon bo‘ladi, deyiladi.

Dev - — 1) zardushtiylikda yovuzlikning asosiy timsoli (q. Anxramaynu). Avestoda «dayva» tarzida qayd etilgan;

2) turkiy va fors-tojik xalmari mifologiyasida yovuzlik timsoli. Dev dahshatli, zulm va zo‘rlik, qonxo‘rlik yoki yovuz kuchlarning irodasiga bo‘ysunuvchi bahaybat maxluq sifatida namoyon bo‘ladi. Devlar er osti saltanatlarida, g‘orlarda, kimsasiz cho‘l va dashtdagi kasrlarda istiqomat qiladi. Qasr, bog‘ va h. k. sohibining amriga itoat etib, parilarni qo‘riklaydi («Gulnor pari», «Yunus pari», «Misqol pari» va b.). Ertak, doston qahramonlariga qarshi yakka yoki tuda bo‘lib kurashadi, ammo hamisha inson qobiliyati, aqli, kuch-qudrati qarshisida ojizlik qiladi, oqibatda engilgan Devlar insonga bo‘ysunadi va uning izmiga yuradi. Devlar osmonda uchuvchi va erda yuruvchi ikki toifaga ajraladi. Ba‘zilari tabiatan hiylagar, makkor, aldamchi va g‘azabkor, boshqalari nozik san’atkor, go‘zal binolar quruvchi usta, afsonaviy kuch egasi. O‘zbek folklorida Ahriman, Ahvon, Samandar, Okdev, Qora dev, Qizil dev, Sariq dev («Badal botir» va b.), Arshak dev, Afsar dev, Boymoq dev, Yaproq dev («Balogardon», «Malika ayyor» va b.) kabi Devlar to‘dasining boshliqlari obrazi uchraydi.

Alvasti - (al, albassi, alvasti, albarsti, albasli, albaslixxotin, almasti) - turklar, qozon, qrim va g‘arbiy sibir tatarlari, qozoqlar, boshqirdlar, tuvaliklar, oltoyliklar, o‘zbeklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, no‘g‘aylar, ozarbayjonlar, qumiqlar, bolqorlar va qorachoylar xalqlarida suv unsuri bilan bog‘liq yovuz jin.

Jin - (arabcha:جن) Islomiyatda va Islomiyatdan avvalgi arab mifologiyasida notabiiy maxluqlar guruhi, irqini anglatadi. Jinlar odamlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, lekin o‘zi xohlaganda yoki Allohdan buyruq olganda ko‘rinishi mumkin.

Pari - — Sharq xalqlari folklorlarida keng tarkalgan mifologik obraz; ma‘shuqa timsolining ideallashtirilgan shakli; go‘zallik ramzi. Dastlab «Avesto»da payrika shaklida uchraydi. Rivoyatlarga ko‘ra, Parilar Ko‘hi Qof tog‘i yaqinidagi Eram bog‘ida yashaganlar, o‘z shohi va saltanatiga ega bo‘lishgan, ularni g‘ayritabiiy kuchlar — devlar qo‘riqlagan. Ertaklarda Pari nihoyatda go‘zal, aqlli, donishmand, latofat va nazokat egasi sifatida ta’riflangan. U sehrli xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘rni kelganda turli qiyofaga kira ola-di, o‘zining adolatli harakati, to‘g‘ri va aniq maslahatlari bilan qahramon g‘alabasiga imkon yaratadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi shayton va farishtalar obrazlari asosan islom tasavvufi va turkiy mifologik dunyoqarashga asoslanib yaratilgan. Islom dinida iblis (Iblis) Allohning buyrug‘iga bo‘ysunmagan, insonni vasvasaga soluvchi yo‘ldan ozdiruvchi, gunohlarga yo‘naltiruvchi mavjudot sifatida tasvirlansa, farishtalar (maloika) Allohning o‘z payg‘ambarlariga xabarlarini etkazuvchi elchilari, vahiy tashuvchilari va insonlarning himoyachilari hisoblanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham bu tushunchalar ingliz adabiyotidagi kabi nafaqat diniy ruhda bitilgan matnlarda, balki dunyoviy, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq badiiy asarlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, insoniyat paydo bo‘lgandan beri tabiatda sodir bo‘layotgan hodisalar mohiyatini tushunishga harakat qilgan. Shu bois ibtidoiy jamoadan

rivojlangan jamiyatgacha insoniyatning ma'naviy, e'tiqodi va voqelikni badiiy idrok qilishi o'ziga xos tarzda kechib, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, ma'lum qoidalarga asoslangan tartib va xaos o'rtasidagi o'zaro ziddiyat mohiyatini anglashga qaratilgan murakkab jarayon ko'plab mifologik tushunchalarning, miflarning hamda mifologik obrazlarning yaratilishiga asos bo'ldi. Bu jarayonda demonologiya va anglalogiya tushunchalari o'ta muhim hisoblanib, ular ibtidoiy sodda tasavvurlardan tortib mifologik dunyoqarashning shakllanishi, rivojlanib, ta'limot darajasigacha ko'tarilishida dinning roli kuchayib borganigacha o'z ichiga qamrab oldi. Shu tariqa mifologik qarashlarda demonologiya va angelologiya tushunchalari paydo bo'ldi. Demonologiya — yovuz ruhlar, jinlar, devlar, shaytonlar va zararli ko'rinishdagi metafizik mavjudotlar haqidagi ta'limot yoki qarashlar majmui bo'lsa, angelologiya — farishtalar, samoviy elchilar, ilohiy nurlar va pok ma'naviy mavjudotlar haqidagi tasavvurlar tizimidir. Bu ikki tushuncha bir-biriga qarama-qarshi qutbda bo'lsa-da, ammo ayni paytda biri ikkinchisini taqozo qiladigan, uzviy bog'liq bo'lgan holda yaxshilik va yovuzlikning kosmik miqyosidagi dualizmini ifodalaydi. Ingliz adabiyotidagi demonologik va angelologik tasvirlar asosan xristian ta'limotiga tayangan bo'lsa-da, uning tarkibiga qadimgi german va kel't mifologiyasi elementlari ham singib ketgan. Xristianlikning Angliyada tarqalishi bilan adabiyotga Bibliyadagi iblis va farishta tasvirlari kirib keldi.

Islom madaniyatida demonologiya yanada mustahkam tizimga ega bo'lib, ularni o'rganuvchi maxsus ta'limot mavjud bo'lmasa-da, Qur'onda jinlar va shaytonlar haqidagi ko'plab o'rinlar mavjud. Jinlar insonlar kabi irodali mavjudot sifatida yaratilgan bo'lib, ular orasida ham mo'min va kofir toifalar borligi qayd etiladi. Shayton esa vasvasaning, ma'naviy inqirozning, insonni to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi kuchlarning markaziy timsoli bo'lib, adabiyotda turli ko'rinishlarda aks etadi. Tasavvufiy manbalarda demonologik obrazlar ko'proq majoziy mazmun kasb etib, ular insonning o'z nafs, jaholat, nafs, zulmat va ruhiy to'siqlarining ramziga aylantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пивоев В. М. Мифологическое сознание как способ освоения мира.- Петрозаводск: Карелия, 1991.С.25.
2. Ашуров Т. Халқ достонларида қаҳрамон-титанлар образи талқинига доир.- XXаср ўзбек фольклоршунослиги. Антология. << Ozbekiston milliy ensiklopediyasi>>Давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2017.Б.286.
3. Саримсоков Б. Эпик жанрлар диффузияси // Узбек фольклорининг эпик жанрлари. -Тошкент, 1981, 102-бетлар.
4. Жураев М., Шомусаров Ш. Узбек мифологияси ва араб фольклори. —Тошкент: Фан, 2001, 10-11-бетлар.
5. <https://www.dissercat.com/content/folklornoe-i-mifologicheskoe-v-angliiskoi-literaturnoi-traditsii-xx-veka-dzhrr-tolkin-ub-ie>
6. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Тошкент, 2008.Б.6.

7. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Куллиёт. 1-жилд. Девон. Тошкент: “Zilol buloq” нашриёти, 2021.

8. Нажмиддин Кубро. Кўнглим кўзи билан кўрганларим. /Жузжоний Абдулҳаким Шаърий. Тасаввуф ва инсон. — Т.:»Адолат», 2001.

9. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-sh/shayton-uz/>

11. <https://hidoyat.uz/23667>